diki, bolalar katta yoshlilarga qaraganda ancha ko‘proq tabassum qilishadi va kulishadi. Mashhur statistik ma’lumotga ko‘ra, bir kunda o‘rtacha bola 300–400 martagacha kuladi yoki tabassum qiladi, holbuki, kattalarda bu raqam atigi 20–50 marotabani deb qayd etiladi. Raqamlar biroz farq qilishi mumkin bo‘lsa-da, yondashuvlar ravshan: bolalar quvonchni bemalol va cheklovsiz ifodalaydilar, kattalar esa jamiyat qoidalari, hissiy nazorat yoki mas’uliyat yukining ortishi tufayli yuz ifodalarini ifoda etishda bir qancha cheklovlar qo‘yishadi.

Tilga nazar tashlasak, bu farq, ko‘pincha, “bolaning beg‘ubor tabassumi” kabi iboralarda aks etadi – bunday ifoda poklik va ichki quvonchning cheklovsiz ifodasini uyg‘otadi. Adabiyotda va kundalik nutqda bolalarning “*the innocent smile of a child*” “beg‘am tabassumi” yoki “yoshlikka xos jilmayish” kattalarning ancha sokin, mulohazali tabassumlari bilan qiyoslanadi. Qariyalar esa, odatda, “donolik ifodasi” yoki “muloyim tabassum” bilan tavsiflanadi, ammo bu holat kam uchraydi. Masalan, “*After a long stern lecture, the grandfather finally smiled a little*”, “*Uzoq jiddiy nasihatdan so‘ng, boboning yuzi bir oz tabassumga to‘ldi*” kabi jumlalar qariyaning, odatda, jiddiy ko‘rinishiga nisbatan yuz bergan o‘zgarishni ta’kidlaydi.

O‘zbek madaniyatida esa bu holat yanada aniqroq ko‘zga tashlanadi. Bolalardan xushchaqchaqlik va ochiq tabassum kutilsa, yoshi ulug‘ insonlar ko‘proq sokin va vazmin yuz ifodasini saqlashadi. O‘zbek tilida yoshi katta kishining jilmayishini “*tabassum qilmoq*” deb ifodalash odatiy hol bo‘lib, bu keng kulgu emas, balki odobli, yumshoq va nazokatli tabassumni ifodalaydi. Bundan ko‘rinib turibdiki, o‘zbek madaniyatida yoshi ulug‘ insonlarning hurmatli va vazmin ko‘rinishda bo‘lishi kerakligi haqidagi ijtimoiy kutishlarga mos keladi [7;19-b.].

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa qilib aytganda, adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, ingliz tilida tabassum deyarli hamma joyda uchraydigan ijobiylik belgisi sifatida talqin qilinadi (ko‘plab hosila so‘zlar va frazeologik birliklar bilan), o‘zbek tilida esa tabassum biroz ehtiyotkorlik bilan, nozik ma’noli til birliklari orqali ifodalanadi. Jinsiy rollar va yosh guruhlari bu yondashuvlarga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi: ayollar va yoshlar, odatda, ko‘proq va ifodali tabassumlar bilan bog‘lanadi, erkaklar va yoshi katta insonlar esa kamroq tabassum qilishadi yoki tabassumni muayyan holatlarda, aniq belgilangan vaziyatlarda namoyon qilishadi, bu holatlar ularning tabassumlari qanday tasvirlanishida ham aks etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). Brown, P., Levinson, S. Politeness: Some Universals in Language Usage. Cambridge, Cambridge University Press, 1987, 345 p.

(2). Ekman, P., Friesen, W. Unmasking the Face: A Guide to Recognizing Emotions from Facial Clues. Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1975, 212 p.

(3). Juraeva, N. A Comparative Linguistic Analysis of the Concepts of “Smile” and “Tabassum” in English and Uzbek // European Journal of Interdisciplinary Research and Development. 2024, № 34, p. 26–28.

(4). Kowner, R., Wiseman, R. The face in emotion recognition. The impact of culture and context on smiling interpretations. Journal of Nonverbal Behavior. 2003, Vol. 27, № 2, p. 125–130.

(5). LaFrance, M., Hecht, M.A., Paluck, E.L. The contingent smile: A meta-analysis of sex differences in smiling. Psychological Bulletin. 2003, Vol. 129, № 2, p. 305–334.

(6). Longman Dictionary of Contemporary English. 6th ed. Harlow. Pearson Education Limited, 2014, 2081 p.

(7). O‘zbek tilining izohli lug‘ati. A.Madvaliyev (tahrir). Toshkent, O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2006, 625 bet.

(8). Patti Wood. Gender Differences in Smiling. Body Language Expert Articles. 2011.

(9). Wierzbicka, A. Emotions Across Languages and Cultures: Diversity and Universals. Cambridge, Cambridge University Press, 1999, 328 p.

Karimova Munisa Yaxyoyevna (Samarqand davlat Chet tillar instituti “Ingliz tili grammatikasi va tarixi” kafedrasi doktoranti),
Imamov Navruz Pattaqulovich (Samarqand Iqtisodiyot va servis instituti “Tillarni o‘qitish” kafedrasi katta o‘qituvchisi; e-mail: nimamov86@gmail.com)

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA FE’LNING CHEGARALANMAGANLIK XUSUSIYATI VA HARAKAT TARZI QIYOSIY TAHLILI

Annotatsiya. *Maqolada fe’lning chegaralanganlik xususiyatlari turli tillar misolida qiyosiy-nazariy tahlil qilinib, ularning morfologik va sintaktik kontekstda namoyon bo‘lishi yoritiladi. O‘zbek tilida harakat tarzi yetakchi va ko‘makchi fe’llar orqali ifodalanib, inxoativlik, intensivlik kabi semantik omillarni o‘z ichiga oladi.*

Kalit so'zlar: *chegaralanganlik, chegaralanmaganlik, leksik-semantik xususiyatlar, aspektual belgi, harakat tarzi, yetakchi fe'l, ko'makchi fe'l, inxoativlik, intensivlik, jarayon boshlanishi, qiyosiy tahlil.*

Каримова Муниса Яхёевна (докторант кафедры «Грамматика и история английского языка» Самаркандского государственного института иностранных языков),
Имамов Навруз Паттакулович (старший преподаватель кафедры «Преподавание языков» Самаркандского института экономики и сервиса)

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ХАРАКТЕРИСТИКИ НЕОГРАНИЧЕННОСТИ ГЛАГОЛА И СПОСОБА ДЕЙСТВИЯ В УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация. *В статье сравниваются и теоретически анализируются конечности глагола на примере разных языков, а также выделяется их проявление в морфологическом и синтаксическом контексте. В узбекском языке образ действия выражается через ведущие и вспомогательные глаголы и включает такие семантические факторы, как инхоативность и интенсивность.*

Ключевые слова: *ограниченность, неограниченность, лексико-семантические характеристики, аспектуальный признак, способ действия, ведущий глагол, вспомогательный глагол, инхоативность, интенсивность, начало процесса, сравнительный анализ.*

Karimova Munisa Yakhyoevna (Doctoral student at the Department of "English Grammar and History" of Samarkand State Institute of Foreign Languages),
Imamov Navruz Pattakulovich (Senior Lecturer at the Department of "Language Teaching" of Samarkand Institute of Economics and Service)

COMPARATIVE ANALYSIS OF THE UNLIMITEDNESS OF VERBS AND MANNER OF ACTION IN UZBEK AND ENGLISH

Annotation. *The article provides a comparative theoretical analysis of the features of verb delimitation in different languages, highlighting their manifestation in morphological and syntactic contexts. In the Uzbek language, the mode of action is expressed through leading and auxiliary verbs and includes semantic factors such as inchoativeness and intensity.*

Key words: *perfectiv, imperfectiv, lexical-semantic features, aspectual feature, manner of action, main verb, auxiliary verb, inchoativity, intensity, beginning of the process, comparative analysis.*

Kirish. Tilshunoslikda inxoativlik–harakatning boshlanishi tushunchasi hisoblanadi. Lingvistika sohasidagi adabiyotlarda "inxoativ fe'llar" atamasi holatning boshlanishi, uning o'zgarishi yoki bir holatdan boshqasiga o'tishini ifodalovchi fe'llarni belgilash uchun keng qo'llaniladi. Ushbu grammatik hodisa til taraqqiyotining turli bosqichlarida bir holatdan ikkinchisiga o'tish jarayonini aks ettirgani sababli, til birliklarining ushbu jarayonga munosabatini ajratib ko'rsatish va uni semantik jihatdan tahlil qilish mumkin.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. O.Axmanovaning lug'atida "inxoativ" atamasi fe'llarning semantik jihati bilan bog'liqligi haqida ham ma'lumot berilgan. Bir holatdan boshqasiga o'tish jarayonini anglashi inxoativlik hodisasining muhim belgilaridan biri sanaladi. Uning mazmunini aniqroq tushunish va boshqa tushunchalardan farqlash uchun esa harakat tushunchasi bilan taqqoslash lozim. Holat tushunchasi esa, odatda, jismoniy, ruhiy, kayfiyat va aqliy holat kabi ma'nolarni o'z ichiga oladi.

Fe'lning chegaralanmaganlik xususiyati borasida A.Bandarko harakat kechimida chegaraning yo'qligi bo'lib, harakat tarzining umumiy xususiyati sanaladi va tugallanmagan tusga bog'liq [A.Bandarko. 1983;29 c.], degan ta'rifni beradi. Chegaralanganlik, birinchi navbatda, fe'lning leksik ma'nosiga bog'liq bo'lib, harakatning tugallanish yoki boshlanish nuqtasi mavjud bo'ladi. Qayd etilgan ta'rif ko'proq rus tiliga xos hodisa sanaladi. Ammo, yuqorida qayd etganimizdek, fe'lning chegaralanganlik, chegaralanmaganlik turlarga ajratish universal hodisa hisoblanadi [2].

Muhokama. Harakat tarzi fe'lning sintaktik xususiyati sifatida qaraladi. Shu sabab ushbu kategoriya turli tillarda turlicha shaklga ega bo'lishi mumkin. Bu esa harakat tarzi tasnifini amalga oshirishda tadqiq etilayotgan tilning ichki xususiyati, morfologiyasi, sintaktik tuzilishi, shu bilan birga, fe'llarning leksik ma'nosi boshqa so'z turkumlari bilan modifikatsiyalanish xususiyatlarini ham e'tiborga olish zarur sanaladi. Misol uchun, o'zbek tilidagi *yurish* harakati fe'l sistemasida *"borib kelmoq"* birikmasi mavjud. Mazkur birikma o'ziga xos qarama-qarshi yo'nalishdagi harakatni anglatadi. Lekin ko'plab o'zbek tili grammatikachilarida ushbu birlikma yetakchi ko'makchi fe'l birikmasi tarzida baholanadi. Ammo e'tibor qaratadigan bo'lsak, ikkala fe'l ham o'z leksik shaklini saqlaydi, shu bilan birga, *-ib* shakli orqali birikib, analitik birikma hosil qiladi. Ba'zi hollarda ichki turdagi harakat tarzini birlashishini kuzatish mumkin. Bu hodisa o'zbek tili yetakchi fe'llarini leksik ma'nosini saqlashi bilan bog'liq. Bunda ko'makchi fe'l qo'shimcha semantika beradi. Misol uchun, *buzila boshlamoq, chiriy boshlamoq, sapchib ketmoq* birikmalarida inxoativlik (holat o'zgarishi)+harakat boshlanishi yuzaga kelgan. Masalan: *Yaqin orada ot kishnadi. Dildor sapchib o'rnidan*

turib, bo'y cho'zib u yoq-bu yoqqa qaradi. Do'ngning narigi tomonida ot jilovini ushlagancha Xolmatjon cho'nqayib o'tirar, yerga qamchi bilan nimalamidir chizard (Said Ahmad. Ufq. 556-b.).

Yetakchi fe'l vazifasidagi *buzilmoq, chirimoq* fe'llari chegaralangan xususiyatga ega. Buzilish yoki chirish o'z yakuniy nuqtasiga ega bo'lsa-da, ko'makchi fe'l *(boshla)* qo'shilishi ushbu jarayonning boshlanishini ko'rsatib kelgan. Inxoativlik harakat tarzi ko'pgina vaziyatlarda fe'lning leksik ma'nosidagi harakatni ingressiv va regressiv mazmuniga asoslanadi. Ingliz tilida mazkur turga to destroy, to build, to dry va hokazo. O'zbek tilida ham shu kabi semantikaga ega bo'lgan *yeg'moq, buzmoq, quritmoq, qizdirmoq* kabilarni inxotiv semantikali fe'llar tarkibiga kiritish mumkin. Qiyoslanayotgan tillarda inxoativ harakat tarzi shakllarda yasaladigan holatlarni ham uchratish mumkin. Ingliz tilida to get, to turn kabi yordamchi fe'l birikmalarida inxoativ semantika ifodalanadi [3]. Masalan: *to get old, to get red, to turn pole* va hokazo. O'zbek tilida esa *ketmoq, tashlamoq* kabi ko'makchi fe'llarning ushbu semantikani yetakchi fe'llar bilan birikishda yuzaga keltiladi. Masalan: *"As the years went by, he found himself getting old, the youthful vigor fading into distant memory"* (F.S.Fitzgerald. "The Curious Case of Benjamin Button"). *"She turned pale as she read the news, her hands trembling"* (J.Ostinning. "G'urur va xurofot" (Pride and Prejudice).

Masalan: *qizib ketmoq, sindirib tashlamoq* va hokazo. O'zbek tilida mazkur hodisa morfologik-grammatik va leksik ma'nolarining mos kelishi sababli hosil bo'ladi. Inxoativlikning yana bir turi yetakchi fe'lning murakkab leksik ma'nosi va ko'makchi fe'llardagi intensivlik semantikasini yordamida boshlanishi+intinsivlik, kuchaytirish+boshlanish kabi mahnolarni hosil qiladi. Masalan: *yig'lab yubormoq, sapchib ketmoq, gumbirlab ketmoq* va hokazo. *Hovlining jimjitligi, Asrora bilan Xolmatjonning qandaydir tashvish bilan turganlarini ko'rishi bilan ho'ngrab* ***yig'lab yubordi.*** *– Yetib kelolmadimmi? Dildorim* (Said Ahmad. Ufq. 550-b.). *Bu ovozni kimsasiz jarliklar yutib yuboradi. Shahardan chiqqan ovchilaming onda-sonda o'rdak galasiga otgan o'qlari hamma yoqni* ***gumbirlatib jim bo'ladi*** (Said Ahmad. Ufq. 46-b.).

Natijalar. O'zbek tilida fe'llarning chegaralanganlik, chegaralanmaganlik xususiyatlar yetakchi va ko'makchi fe'l birikmasida muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'makchi fe'lning chegaralanmaganlik talqini yetakchi fe'lning leksik ma'nosiga qarab aspektual semantikaga o'zgaradi. Masalan: *yurmoq* fe'li chegaralanmagan xususiyatga ega. Ushbu fe'l ko'makchi fe'l vazifasida kelganda harakatning davomiyligini anglatadi. Bu holat, asosan, yetakchi fe'l ham chegaralanmagan xususiyatga ega bo'lganda kuzatiladi. Masalan: *o'ynab yurmoq, o'qib yurmoq.* Ammo harakat usulini bildirgan vaziyatlarda *yurmoq* o'z leksik ma'nosini saqlaydi va ko'makchi fe'llik xususiyatini yo'qotadi. Masalan: *gandiraklab yurmoq.* "Yurmoq" fe'li ko'makchi fe'l vazifasida chegaralangan xususiyatni barcha fe'llar vazifasida chegaralangan xususiyatni barcha bilan ham birikavermaydi. Masalan: *Birdan zardasi qaynab, birov bilan urishgisi kelaverdi. G'ayrati qo'zg'ab uyga qarab chopdi. U borib akasining yoqasidan bo'g'ib olmoqchi, uni to qo'li og'riguncha do'pposlamoqchi.* ***Gandiraklay-gandiraklay*** *uyga kirib bordi-yu, supaga yetmay yiqildi* (Said Ahmad. Ufq. 25-b.). Bu hol, yuqorida keltirib o'tganimizdek, yetakchi fe'lning leksik ma'nosi bilan mutanosib bo'lishiga bog'liq. Masalan: *kulib yurmoq, sevinib yurmoq.* Ushbu birikmalar davomiylikni bildiradi.

Fe'lning chegaralanganlik va chegaralanmaganlik xususiyatlari universal hodisa bo'lib, turli tillarda har xil ko'rinishda namoyon bo'ladi. Ushbu maqolada fe'llarning ushbu xususiyatlari o'zbek va ingliz tillari misolida tahlil qilindi. Tadqiqotdan ma'lum bo'ldiki, harakat tarzi faqat sintaktik yoki morfologik jihatdan emas, balki semantik nuqtayi nazardan ham o'zgaruvchan bo'lishi mumkin.

O'zbek tilida yetakchi va ko'makchi fe'l birikmalari harakatning chegaralanishi yoki chegaralanmasligini belgilashda muhim rol o'ynaydi. Masalan, "buzila boshlamoq", "chiriy boshlamoq" birikmalarida harakatning boshlanish nuqtasi inxoativlik vositasida ifodalanadi. Ingliz tilida esa bu holat "to get old", "to turn pale" kabi birikmalar orqali namoyon bo'ladi. Ushbu fenomen har ikkala tilda ham harakatning ingressiv va regressiv xususiyatlarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Fe'llarning chegaralanish xususiyatlarini o'rganishda harakat tarzi, sintaktik tuzilish va leksik ma'no o'zaro chambarchas bog'liq. O'zbek tilida ushbu jarayon, ko'pincha, fe'lning morfologik va semantik xususiyatlari orqali namoyon bo'lsa, ingliz tilida ko'makchi fe'llarning vositachilik xususiyati asosida ifodalanadi. Shu bois fe'llarning chegaralanganligi va chegaralanmaganligini aniqlashda harakatning davomiyligi, boshlanishi va intensivligi kabi omillarni hisobga olish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. T., "O'zbekiston', 2017, 171-bet.

(2). Бондарко А.В. Принципы функциональной грамматики и вопросы аспектологии. Л., 1983, 208 с.

(3). Mirsanov G‘.Q. Ingliz va o‘zbek tillarida yurish-harakat fe’llarining aksional va aspektual xususiyatlari. Filol.fan.n.diss. avtoref., Toshkent, 2009, 21-bet.

(4). Shermatov A. Tilshunoslikdagi yangi yo‘nalishlar xususida. Tilshunoslikdagi yangi yo‘nalishlar va ularning muammolari. Ilmiy-amaliy seminar materiallari, Toshkent, 2013, 234–237-betlar.

(5). Smith C.S. Modes of Discourse. The Local Structure of Texts. Cambridge University Press, 2003, 336 p.

(6). Vendler L. Verbs and times. Der englische Aspekt. Ed. By A.Schopf. Darmstadt, 1974, 217–234-betlar.

Dlanova Palzira Gulimbetovna (Qoraqalpog‘iston Qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti)

TALABALARDA ORFOGRAFIK KO‘NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada oliy o‘quv yurtlarida ta’lim oluvchi talabalar uchun tilning fonetik va grammatik o‘zgachaliklarini tushungan holda, orfografik yozishni bilish alohida ahamiyatga ega ekanligi, talabaga qoraqalpoq tilini to‘liqroq va mustahkam o‘zlashtirishga yordam berishi uchun orfografik ko‘nikmalarni shakllantirish va takomillashtirish masalalari haqida so‘z yurtiladi. Ta’lim boshqa tilda olib boriladigan o‘rta maktabni tugatib, Qoraqalpog‘iston Respublikasi oliy ta’lim muassasalariga kirishda talabgorlar qoraqalpoq tilining asosiy qoidalarini bilishi, o‘qigan matnlarini og‘zaki va yozma turda yetkaza olishi kerak. Bunda orfografiyani ham bilishi kerakligi alohida ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so‘zlar*: orfografiya, morfologiya, fonetika, matn, prinsip, og‘zaki, yozma.*

ВОПРОСЫ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ ОРФОГРАФИЧЕСКИХ НАВЫКОВ У СТУДЕНТОВ

Аннотация. *В данной статье рассматривается важность знания орфографии для студентов, обучающихся в высших учебных заведениях, понимания фонетических и грамматических особенностей языка, а также вопросы формирования и совершенствования навыков орфографии, помогающих студентам более полно и прочно овладеть каракалпакским языком. Для окончания средней школы с обучением на другом языке и поступления в высшие учебные заведения Республики Каракалпакстан учащиеся должны знать основные правила каракалпакского языка и уметь устно и письменно передавать прочитанные тексты. Особенно важно, чтобы они также знали, как писать.*

Ключевые слова: *орфография, морфология, фонетика, текст, принцип, устный, письменный.*

ISSUES OF FORMATION AND DEVELOPMENT OF ORTHOGRAPHIC SKILLS IN STUDENTS

Annotation. *This article discusses the importance of knowledge of spelling for students studying in higher education institutions, understanding the phonetic and grammatical features of the language, and the issues of forming and improving spelling skills in order to help students master the Karakalpak language more fully and firmly. Upon graduating from secondary school, where education is conducted in another language, students entering higher educational institutions of the Republic of Karakalpakstan must know the basic rules of the Karakalpak language, be able to convey the texts they have read orally and in writing. In this regard, it is especially important to know spelling.*

Keywords: *spelling, morphology, phonetics, text, principle, oral, written.*

Kirish (Introduction). Har bir yuksak madaniyatli inson to‘g‘ri yoza bilishi va to‘g‘ri so‘zlay olishi kerak. Bu talab bo‘lg‘usi pedagoglar va filologlarga nisbatan, ayniqsa, qat’iy qo‘yiladi. Chunki ular yosh avlodga umumiy savodxonlik va nutq madaniyati to‘g‘risida saboq beradilar, ularni savodxonlikka va chechanlikka o‘rgatadilar. Qraqalpoq orfografiyasi tizimini o‘zlastirish talabalarning imlo ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan o‘qish faoliyati natijasida yuzaga keladi. Agar talabalar orfografik tushunchalar tizimini va qoraqalpoq tilining orfografiyasini biladigan bo‘lsa, orfografik ko‘nikmalar yaxshi shakllanadi.

Ma’lumki, nutqning og‘zaki va yozma shakllari mavjud bo‘lib, bular texnik jihati, talaffuz va ta’sir etish xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladi. Nutqning ana shunday ko‘rinishlaridan biri yozma putq (yozuv yo‘li bilan fikr ifodalash vositasi) orfografiya bilan bevosita va uzviy bog‘liqdir. Nutqning bu ko‘rinishi yagona tarzda yozishning ma’lum ilmiy va obyektiv qonun-qoidalari tizimi bo‘lgan orfografiya va uning prinsiplariga asoslanadi. Orfografiya adabiy tilning yozuv shakli bilan aloqador bo‘lib, u to‘g‘ri yozish qoidalari to‘g‘risidagi fandir. Orfografik kompetensiyani shakllantirish fikirlashning rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq. Ko‘rgazmali-amaliy fikrlash narsalarni (holatni) aniq sezishga, narsalar bilan harakat etish jarayonida holatni real o‘zgartirishga tayanadi. Ko‘rgazmali-obrazli fikrlash ko‘rinish va obrazlarga asoslanishi bilan xarakterlanadi. Uning vazifasi holatni ko‘rsatish va ulardagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘lib,